

## UZUMCHILIKDA MAHSULOT YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)



**Zarekeyev Ajiniyaz Abatovich**

Qoraqalpoq davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish, sohada yaratilayotgan qo'shimcha chora-tadbirlar, uzumchilik sohasida bugungi kundagi islohotlar va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi ahamiyati bayon qilingan. Uzumchilik sohasini jadal rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda sohada olib borilishi lozim bo'lgan maqsad va vazifalar o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** Uzumchilik, samaradorlik, hosildorlik, eksport, yetishtirish, salohiyat, navlar, ekin maydoni.

**Kirish.** Uzumchilik qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan bo'lib, aholining oziq-ovqatga hamda sanoatning esa xom-ashyoga bo'lgan talabini qondiradi. O'zbekistonning tuproq va iqlim sharoiti bu ekin uchun nisbatan qulay bo'lgani uchun u mamlakatimizning barcha tuproq va iqlim sharoitlarida o'stiriladi.

O'zbekiston uzum yetishtirish bo'yicha dunyodagi eng yirik davlatlardan biri bo'lib, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 12-o'rinni egalladi. Uzum yetishtirishning umumiy hajmi 1978 mln.t., hosildorligi 16 t/ga. Respublikada umumiy uzumzorlar maydoni 148,9 ming gektar bo'lsa, keyingi to'rt yilda 52 ming gektar maydonda yangi tokzorlar barpo etilib, sohaga 210 milliard so'm subsidiya ajratildi. Natijada meva-sabzavot eksportida uzumning ulushi ikki barobar oshdi. Keyingi ikki yilda O'zbekistonning 44 ta tumani uzumchilikka yo'naltirildi va bu hududlarda uzumning ayniqsa texnik navlarini ko'paytirish rejalashtirilgan.

Xalq xo'jaligini modernizatsiya qilish sharoiti da uzumchilik mahsulotlarini yetishtirish qishloq xo'jaligining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uzumchilik tarmog'ining rivojlanishi aholining oziq-ovqat bilan ta'minlanishi, qishloq oilalari daromadining oshishi, qishloqda bandlik darajasi oshishi, qayta ishlash sanoatining rivojlanishi va eksport salohiyatining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishi tufayli ichki bozorlarda xorijiy qayta ishlangan uzumchilik mahsulotlari ulushining keskin kamayishiga erishildi. Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda kichik biznes jahon iste'mol bozorida tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni qondirish, bandlik masalasini hal qilish, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishda juda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalari. Uzumchilikni rivojlantirishga bugungi kunda davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Qabul qilingan dasturlar uzumzorlar maydonini kengaytirish, hosildorlikni oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali resurs xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.08.2023-yildagi "2023-2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-260 sonli qarorida mahalliy uzum navlarining milliy brendlarini yaratish va yangi bozorlarga olib chiqish orqali eksportni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni tasdiqlash hamda ilmiy asoslangan holda uzum yetishtirish, uning yangi hosildor, danaksiz navlarini yaratish maqsadida uzumchilik ilmiy maktabini rivojlantirish hamda ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini yo'lga qo'yish kabi vazifalar belgilab berilgan [1].

Shu bilan birga, sohani yanada samarali rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammolar ham mavjud. Ular orasida quyidagilarni ta'kidlash joyiz. Uzumchilik mahsulotlari xomashyo bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, birinchi navbatda texnik uzum navlarini


ishlab chiqarishning xilma-xilligi va kichik hajmi. O'rim-yig'im va yetkazib berish texnologiyalariga rioya qilmaslik muammosi ham dolzarb bo'lib, bu uzum sifatining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Uzumzorlarni kimyoviy himoya qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan xizmatning y'oqligi kasallik va zararkunandalarning tarqalishiga yordam beradi [2].

Mamlakatimizning uzum yetishtirish bo'yicha jahon mamlakatlari orasidan joy olishi uzumchilikka bo'lgan e'tiborning bir ko'rinishi hisoblanadi. Ushbu maqolamizda Qoraqalpog'iston Respublikasida uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini respublika kesimida statistik kuzatuvlar asosida tahlil qildik.

#### MATERIALLAR VA USULLAR

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasining 2017-2023 yillardagi uzum ishlab chiqarish bo'yicha statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda grafik tahlil usulidan foydalanildi. Tayyorlangan grafalar Microsoft Excel 2019 dasturi yordamida tayyorlandi.

#### NATIJA VA MUHOKAMALAR



**1-grafik. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2017-2023 yillarda jami ishlab chiqarilgan uzum (tonna) miqdori.**

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2023-yilda uzum ishlab chiqarish salmog'i boshqa yillardagiga qaraganda yuqori bo'lgan. Undan oldingi ko'rsatkichlar bo'yicha o'zgarish kam bo'lganligini kuzatish mumkin. Bunday o'zgarishlardan shu narsani aytish mumkinki uzum ishlab chiqarish sanoatidagi bu o'zgarish boshqa meva ekinlari maydonlari ko'payganligi yoki bo'lmasa ba'zi tok maydonlari qaytadan rekonstruksiya qilinayotganligi bilan baholash mumkin.

2017-2023 yillarda uzum mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'rtacha yillik o'sish sur'ati yillik o'rtacha 8,1 foizni tashkil etdi. Eng yuqori o'sish ko'rsatkichi 2019-yilga to'g'ri kelgan va 10 166,0 tonnani tashkil etgan. Eng kam o'sish ko'rsatkichi esa 2022 va 2023-yillarga to'g'ri kelgan hamda 11 361,5 tonna va 11 614,0 tonnani tashkil qilgan. Albatta, yillar kesimida uzum mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi har yili ijobiy tarzda o'zgarib bormoqda, lekin hozirgi vaqtdagi dunyo iqtisodiyoti uchun ushbu ko'rsatkichlarning o'sishi yetarli emas hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi uzumlari, hususan Qoraqalpog'iston Respublikasi uzumlari va uni qayta ishlash mahsulotlarining asosiy tashqi bozorlari qo'shni davlatlardir. Eng yirik import qiluvchi davlatlar Qozog'iston va Rossiya bo'lib, eksport qilinadigan uzumning yarmidan ko'pi ularning hissasiga to'g'ri keladi. Bu holat eksportning past diversifikatsiyasidan dalolat beradi, bu esa import qiluvchi mamlakatlarga o'z shartlari va narxlarida turib olish imkonini beradi [3].

Shuningdek, uzumni qayta ishlash, saqlash va eksport qilish bo'yicha mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmoqda, deb bo'lmaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavot va uzumning atigi 15 foizi qayta ishlanib, 8 foizi eksport qilinmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda uzum yetishtirishning o'sishi uzumni saqlash va qayta ishlashda qator muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, zamonaviy innovatsion, resurs tejaydigan raqamli texnologiyalarni keng qo'llagan holda sohani isloh qilishda ayrim o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda [4].

Bizning fikrimizcha, quyidagi muammolar uzumchilikni yanada rivojlantirish, sanoat mahsulotlarini keng miqyosda eksport qilish imkoniyatlarini cheklaydi:

- respublikada uzumchilik tarmog'ini chuqur modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash masalalari hali to'liq hal etilmagan;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash va dizaynini takomillashtirish imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi;

- meva va uzum mahsulotlarini uzoq masofalarga tashishning logistika tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagan;

- respublikada konsalting va servis xizmatlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishga ko'maklashish infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan [5].

Mazkur muammolarni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, yechimini topish bugungi kunda tarmoqni rivojlantirishning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa va tavsiyalar. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda uzumchilikni yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Uzumchilik sohasida agrotexnik tadbirlarni mexanizatsiyalash darajasini oshirish. Uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jaligi texnikalari uchun mavjud maxsus texnika sotib olish uchun past foizli va uzoq muddatli kreditlar ajratish, texnika lizingi tizimini yanada takomillashtirish.

2. Uzum yetishtiruvchilarning qiziqishini oshirish, ular yetishtirgan uzum mahsulotlarini xarid qilish, ichki va tashqi bozorga olib chiqish, shuningdek, qayta ishlash va eksport qilishni tashkil etish maqsadida klaster tizimini yanada rivojlantirish.

3. Turli mulkchilik shaklidagi uzumni qayta ishlash korxonalarini ko'paytirish, uzumni qayta ishlash sohasida monopoliyaga barham berish va raqobatni kuchaytirish.

4. To'g'ridan-to'g'ri uzumchilar uchun uzumni saqlash uchun sharoit yaratish. Ayni paytda hududlarda meva-sabzavot va uzumni saqlash uchun muzlatgichlar bilan ta'minlanish darajasi 3,7 foizni tashkil etmoqda.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish, uzumchilik hajmini oshirish, eksport geografiyasini kengaytirish va natijada soha samaradorligini oshirishda muhim omil bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.08.2023-yildagi "2023-2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-260 sonli qarori.

2. A.A.Abdug'aniyev "QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI" (darslik), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent – 2006 yil, 288 bet. (TDIU kutubxonasi 6391) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

3. Сауханов Ж.К. Аграр тармоқда ташқи самараларни оптимал тартиблаштириш ва трансакция харажатларини пасайтириш: муаммолар, усуллар ва моделлар. (Монография) Т.: "Lesson Press" МЧЖ нашриёти, 2022. - 235 б. ISBN 978-9943-8475-4-5.

4. Qalmuratov B.S., "Ekonomika tiykarlari". Oqiw metodikalik qollanba. Toshkent-«METODIST NASHRIYOTI»– 2023. 88 b.

5. Шаульская А.И. ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВОСПРОИЗВОДСТВА ВИНОГРАДАРСТВА // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2019. – № 12-3. – С. 153-157.

6. Экономическое обозрение №8 (236). <https://review.uz/post/eksportniyu-potensial-uzbekskix-vinogradnikov>.